

## O'ZBEKISTONDA SUV RESURSLARINI MUHOFAZA QILISH

*Buxoro Davlat Pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti  
geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi talabasi*

*Z.H.Alloqulova*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston respublikasi suv resurslarini muhofaza qilish masalalari ko'rib chiqiladi. Suv resurslari mamlakat iqtisodiyotida ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Maqola suv resurslarining cheklanganligi, ularni saqlash va samarali foydalanish muammolari shuningdek ularga oid masala qabul qilingan choralar va ularning natijadorligi tahlil qilinadi. Shuningdek suv resurslarining tanqisligi, jumladan iqlim o'zgarishi noto'g'ri boshqaruv ortiqcha foydalanish masalalari yoritiladi. Suv resurslari boshqaruvining zamonaviy yondashuvlari, jumladan suvni tejash texnologiyalari, qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish aholining ekologik savodxonligini yuksaltirish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Maqola O'zbekistondagi mavjud vaziyatni yaxshilash bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** suv resurslari, muammolar, iqtisod, ekologik barqarorlik, cheklanganlik, suv tanqisligi, to'g'ri boshqaruv, qishloq xo'jaligi.

**Kirish.** O'zbekiston qurg'oqchil iqlim mintaqada joylashgan bo'lib, suv resurslari cheklangan. Suv resurslari nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki aholi turmush darajasi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun ham asosiy omil shuningdek suv tanqisligi muammosi butun dunyo uchun ham global muammoga aylangan bir davrda, mamlakatimizda bu masalani hal qilish zarurati oshmoqda. Suv resurslari o'zbekiston iqtisodiyotida ayniqsa qishloq xo'jaligi sanoat ichimlik suvi ta'minotida katta ahamiyatga ega. Respublikada sug'oriladigan yerlarda yetishtiriladigan paxta g'alla va boshqa mahsulotlar



mamlakat iqtisodiyoti uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga suv resurslari biologik xilma-xillikni saqlash va ekologik tizimlar barqarorligini taminlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda suv resurslarini boshqarishning bir qancha muammolari mavjud. Asosiy muammolar orasida transchegaraviy daryolar suvining cheklanganligi, eski sug'orish tizimlari va suv yo'qotilishi keltiriladi. Bundan tashqari aholining ekologik savodxonlik darajasi pastligi va suvni ortiqcha iste'mol qilish odatlari ham vaziyatni murakkablashtiradi.

### **Yechim va takliflar.**

Suvni tejash bo'yicha aholining xabardorligini oshirish.

Qishloq xo'jaligida suv iste'molini optimallashtirish

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

O'zbekiston Respublikasi suv kodeksi 1993

O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari 2024

Markaziy Osiyo ekologik muammolari. Jurnal 2024

